



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

JOMBOY t., Mustaqillik maydoni, 1-uy, +998 66 475 2330, 140400

2026-yil 27-mart

VII-24-24-7-94-K/26

Jomboy tumani

Jomboy tumani hokimining 2026-yil 7-yanvardagi “Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy-tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5-7-94-Q/26-sonli qarorini tasdiqlash to‘g‘risida

Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini ko‘rib chiqish, uning samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash, shuningdek, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni yanada sifatli amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Muhokama davomida Jomboy tumani hokimining tegishli qarori asosida ishlab chiqilgan boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib, mazkur tuzilma orqali tuman hokimligi faoliyatini yanada samarali tashkil etish, mavjud bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqaruv tizimida ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish hamda fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qilishi ta‘kidlandi.

Jomboy tumani hokimining 2026-yil 7-yanvardagi “Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5-7-94-Q/26-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida samarali tashkil etish, tuman hokimligi boshqaruv apparatining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ijro intizomini mustahkamlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yigirma to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jomboy tumani hokimining 2026-yil 7-yanvardagi “Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5-7-94-Q/26-sonli qarori ma‘qullansin va tasdiqlansin.

2. Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi mazkur qarorga ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jomboy tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Xasanov)ga:

boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasiga muvofiq tuman hokimligi apparati faoliyatini samarali tashkil etish, tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda ijro intizomini yanada mustahkamlash yuzasidan zarur tashkiliy choralarni 2026-yil 1-aprelga qadar ko‘rsin;

davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosini sifatli ta‘minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.


**Xalq deputatlari Jomboy
tuman Kengash raisi**



**ATAMURODOVA
ZULFIYA
KARSHIYEVNA**

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2026-yil 27-martdagi
VII-24-24-7-94-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumani hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasi



. - -

**Tuman hokimining o‘rinbosari maqomiga tenglashtirilgan.*

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – **26 nafar.**

Har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchilari soni – **38 nafar.**